

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI**  
**PhD 03/2025.27.12.I.04.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND**  
**DAVLAT UNIVERSITETI**

**UBAYDULLAYEVA VASILA SADULLAYEVNA**

**TA'LIM XIZMATLARI KO'RSATISHDA DAVLAT-XUSUSIY**  
**SHERIKLIGINING TASHKILiy-IQTISODIY MEXANIZMINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Nukus – 2026**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in  
Economic Sciences**

**Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna**

Та’лим xizmatlari ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikligining tashkiliy-iqtisodiy  
mexanizmini takomillashtirish ..... 3

**Убайдуллаева Васи́ла Садуллаевна**

Совершенство́вание организационно-экономического механизма  
государственно-частного партнерства в сфере предоставления  
образовательных услуг ..... 29

**Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna**

Improving the organizational and economic mechanism of public-private  
partnership in the provision of educational services  
..... 59

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....65

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI**  
**PhD 03/2025.27.12.I.04.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND**  
**DAVLAT UNIVERSITETI**

**UBAYDULLAYEVA VASILA SADULLAYEVNA**

**TA'LIM XIZMATLARI KO'RSATISHDA DAVLAT-XUSUSIY**  
**SHERIKLIGINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05 -Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt4678 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Saidaxmedova Nodira Ilxomovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Salayev San'atbek Kamilovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Xalmuratov Kuanish Polatovich**  
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.I.04.12 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "04" 04 kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.:(998 61) 223-60-78; e-mail: karsu\_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davla universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (430 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (998 61) 223-60-78; e-mail: karsu\_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "18" 03 kuni tarqatildi.  
(2026 yil "18" 03 dagi №127 raqamli reyestr bayonnomasi).



**J.K.Sauxanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**R.B.Utemuratov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, PhD, dotsent

**B.S.Qalmuratov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini joriy etish ta'lim sohasini moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar qamrovini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. DXSh orqali davlatning ijtimoiy majburiyatlari saqlangan holda, xususiy sektorning innovatsion boshqaruv usullari, raqamli platformalar va xizmatlarni personalizatsiyalash imkoniyatlari ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda globalashuv jarayonlari va jahon bozoridagi raqobatning keskin kuchayishi sharoitida ta'lim xizmatlari strategik ahamiyatga ega soha sifatida alohida e'tiborni talab qilmoqda. Ayniqsa, "ularning xalqaro bozordagi hajmi 100 milliard AQSh dollariga yetgani va inson kapitalining milliy boylidagi ulushi rivojlangan davlatlarda 70 foiz, o'rta daromadli mamlakatlarda 58 foiz, kam daromadli hududlarda esa 41 foizni tashkil etayotgani"<sup>1</sup>—bu sohaga davlat-xususiy sherikchiligi asosidagi samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. DXSh doirasida risklarni davlat va biznes o'rtasida taqsimlash, natijaga asoslangan shartnomalar va samaradorlik indikatorlaridan foydalanish ta'lim xizmatlari bozorining barqarorligini ta'minlaydi. Shu sababli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda davlat-xususiy sheriklikni institutsional va metodologik jihatdan chuqur o'rganish hamda takomillashtirish yo'llarini ilmiy tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Jahon miqyosida raqobatning ortib borayotganligi sharoitida ta'lim xizmatlari tizimida davlat va xususiy sektorlar o'rtasidagi sheriklikni mustahkamlash, ularning o'zaro integratsiyalashgan hamkorligini rivojlantirish, tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta'lim sifati va xizmatlar turlarining barqaror o'sishini ta'minlash hamda bilim oluvchilar uchun qulay ta'lim muhiti yaratishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish eng ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan.

"O'zbekistonda ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ta'lim xizmatlari ko'rsatishning davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish obyektiv zaruratga aylanib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "...ta'lim muassasalarini tashkil etishda davlat-xususiy sheriklik salohiyatidan keng foydalanish" zarurligi alohida ta'kidlangan bo'lib, mazkur yondashuv asosida maktabgacha, umumiy o'rta, professional hamda oliy ta'lim bosqichlarida davlat va xususiy sektorlar o'rtasida barqaror va samarali hamkorlik munosabatlarini shakllantirish, ayniqsa, hududlarda bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi davlat-xususiy sherikchilikning o'ziga xos tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini chuqur ilmiy-uslubiy hamda amaliy

---

<sup>1</sup> <https://сиберленинка.ру/article/н/мировой-рынок-образовательных-услуг-высшей-школы>; <http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=3649>

jihattan o‘rganish dolzarb masala sifatida e’tirof etiladi”<sup>2</sup>. “Respublikamizda aholi sonining ortib borishi hisobiga ta’lim xizmatlarini kengaytirish, ta’lim oluvchilarning bilim-ko‘nikma-malakasini shakllantirish orqali ma’lum samaradorlikka erishish maqsad qilib olinganligi sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirishni talab etadi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “maktabgacha ta’limdagi qamrov darajacini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish kabi muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlashda ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirish asosida davlat-xususiy sherikligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi”<sup>3</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2025-yil 19-martdagi PF-51-son “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 26-apreldagi PQ-259-son “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 20-oktabrdagi PQ-3980-son “Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi VMQ-720-son “Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri — “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish,

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/o'zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliymajlisi>, 28.12.2018

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” strategik konsepsiyasi doirasida olib borilgan bo‘lib, unda zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim xizmatlari tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan nazariy-metodologik yondashuvlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ta’lim xizmatlari ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muammolari xorijiy hamda MDH mamlakatlari olimlari tomonidan keng o‘rganilgan va ularning ishlarida ilmiy-uslubiy hamda amaliy qoidalar asoslab berilgan. Jumladan, xorijlik olimlar<sup>4</sup>J.M.Keyns, Y.A.Shumpeter, U.Peti, A. Smit, D.Rikardo, Dj.Keyns, M.Fridmen, P.Druker, B.S. Santo va boshqalar davlat-xususiy sheriklikning ilmiy nazariy asoslarini tadqiq qilganlar.

MDHning qator olimlari jumladan<sup>5</sup>: K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, V.S.Bajenova, D.G.Bajutkin, Yu.A.Shevchenko, M.A.Lukashenko, L.V.Zaxarova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Mahalliy olimlardan<sup>6</sup> M.Q.Pardayev, J.I.Isroilov, A.Q.G‘apparov, K.X.Abduraxmanov, Yu.T.Dodoboev, L.M.Allaxverdieva, B.S.Qalmuratov, Sh.O.Quvondiqov G.Axunova, A.J.Musagaliyev, A.A.Maxmudov, G.X.Utemuratova va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

---

<sup>4</sup>Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Пети У., Смит А., Рикардо Д., Кейнс Дж., Фридмен М. Классика экономической мысли. Соч. – М.: ЭКСИМО-Пресс, 2000; Друкер П. Бизнес и инновации [Текст] / П. Друкер: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. – 350 с.; Санто Б.С. Инновация как средство экономического развития / Санто Б. С. – Москва: Прогресс, 1990. – 295 с.

<sup>5</sup>К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ. под науч. ред. В.В.Кулибановой) – СПб и др.: ПИТЕР бух, 2002. – 751 с.; Баженова В.С. Непрерывное образование в условиях трансформации экономической системы. – М.: Изд. Рос. экон. акад, 2000; Д.Г. Бажуткин Формирование и развитие рынка образовательных услуг высших учебных заведений: теория и методология: автореф. дис. ...д-ра экон. наук. Самара, 2010; Ю.А. Шевченко Маркетинговые стратегии ценообразования в вузе // Практический маркетинг. 2002. № 10 (68). С. 25-32; М.А. Лукашенко Высшее учебное заведение на рынке образовательных услуг: актуальные проблемы управления. – М.: Изд. Маркет ДС, 2003. -358 с.; Л.В. Захарова Формирование и развитие образовательных услуг: автореф. дисс. канд. экон. наук / Белград. 2002;

<sup>6</sup>Pardayev M.Q., Isroilov J.I., G‘apparov A.Q. Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Risola. Samarqand. «Zarafshon», 2009. - 66 b.- 4,1 b.t.; Abduraxmanov K.X., Dodoboev Yu.T., Allaxverdieva L.M. Современный менеджмент и реформирование системы образования в Узбекистане. Учебное пособие. –Т.: TGEU, REA, 2006. 88-89 s.; B.S.Qalmuratov. Минтакада саноатни инновацион ривожлантиришни бошқариш механизми самарадорлигини ошириш стратегияси, Тошкент.: Innovatsiya-Ziyo” nashriyoti, 2022. 256 б. 16 б.т; Quvondiqov Sh.O. Xizmat sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. Iqtisod fanlari nomzodi dis. avtoreferati. Samarqand: SamISI, 2008.- 23 b; Axunova G. O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari marketingi muammolari. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2005 y. – 244 b.; Musagaliyev A.J., and etc. General Analysis of Services in the Economic Development of Regions in Uzbekistan / Asian Journal of Advances in Research. Volume 17. Issue 4. 2022. - Pages: 221-226; A.A.Maxmudov. Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. // Diss. PhD. – Т.: TDIU. 2019. 20-21-b.; G.X. Utemuratova Modeling of Investment Activity in the Development of Public-Private Partnerships in the Service Sector. European multidisciplinary journal of modern science –Germany. Volume 4, 30 in march 2022. – P.575-585. (ISSN 2750-6274).

Ta'lim xizmatlari ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligining asosiy turlari va shakllari tadqiqotlari<sup>7</sup> Sh.E. Qurbonov, E.A. Seytxalilov, A.A. Maxmudov, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish X.N. Imomov va boshqa olimlar<sup>8</sup> tomonidan tadqiq qilingan.

Ilmiy adabiyotlarda davlat-xususiy sheriklik institutining metodologik asoslari, xorijiy va mahalliy tajribalari, ta'lim xizmatlari ko'rsatishdagi shakllari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi barqaror hamkorlikning ta'lim tizimidagi samaradorlik omillari, ayniqsa, maktab, professional va oliy ta'lim bosqichlarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining hududiy xususiyatlari hamda ularning tizimli qo'llanilishiga oid ilmiy asoslar yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Aynan ushbu ilmiy bo'shliq mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab bergan bo'lib, dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini aniqlashtirishda konseptual asos bo'lib xizmat qilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga "Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ta'lim xizmatlari ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

"ta'lim xizmatlari", "davlat-xususiy sherikligi" kategoriyalarining mohiyati, mazmunini tadqiq etish, ularga nisbatan mualliflik yondashuvini asoslash;

ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligining shakllari, o'ziga xos xususiyatlari, shart-sharoitlari va uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasida davlat va biznes o'rtasida sheriklik munosabatlari rivojlanishining ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil etish;

ta'lim tizimida DXSH rivojlanishining xorij tajribasini o'rganish asosida ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexnizmlarini tadqiq qilish;

O'zbekistonda ta'lim xizmatlari ko'rsatishda DXShning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va unga ta'sir etuvchi omillar tarkibini aniqlash;

<sup>7</sup> Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E.A. Ta'lim tizimini boshqarish. – T.: *Turon-Iqbol*, 2006. – 592 b.; Maxmudov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish: avtoreferat. 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. – Toshkent, 2019. – 45 b.; Maxmudov A.A. Mahalliy oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarishga nazariy yondashuv // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2021.

<sup>8</sup> Imomov Xolmurod Norqulovich. Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishining xorij tajribasi // *Innovations in Science and Technologies*. – 2025. – № 2(3). – B. 650.

ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirishda davlat-xususiy sherikligining klasterli tizimining o'ziga xos xususiyatlarini baholash;

davlat-xususiy sherikligi rivojlanishining ta'lim tizimidagi innovatsion va investitsion faolligini modellashtirish asosida uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish;

ta'lim xizmatlari ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning bozorini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti sifatida** O'zbekiston Respublikasi davlat-xususiy sherikligi asosida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib, ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish va samaradorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tizimli tahlil, guruhlashtirish, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

davlat-xususiy sherikligi asosida maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha loyihalashtirish tartibini loyihani amalga oshirish yillari va texnologik bosqichlari bo'yicha investitsiya davri, loyiha doirasidagi chora-tadbirlarning ketma-ketligi va davomiyligi tasviriy ko'rinishda, vaqt bo'yicha (grafik-reja), moliyalashtirish manbalari va hajmlari inobatga olingan holda aks ettirish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

davlat-xususiy sherikligining asosiy prinsiplari ta'lim tizimiga moslashgan holda hududlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj va kambag'al oilalarning farzandlarini ta'lim muassasalari xizmatlaridan imtiyozli foydalanishlariga yo'naltirish orqali takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

davlat-xususiy sherikligining hamkorligini investitsion faolligini oshirish asosida tarbiyalanuvchilarning qamrovi past bo'lgan hududlarda oilaviy shakldagi maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini rivojlantirishning maxsus jamg'armasini tashkil etish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda davlat-xususiy sherikligi asosidagi maktabgacha ta'lim tizimida sifat darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq qilish asosida qamrov darajasining o'sish sur'atlarining 2026–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ta'lim xizmatlari ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning asosiy mohiyatini ifodalovchi tushunchalar sifatida «ta'lim xizmati», «davlat-xususiy sherikligi» kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

ilg'or xorijiy mamlakatlarning ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda DXSH rivojlantirish bo'yicha amaliy tajribalari o'rganilib, mamlakatimizda foydalanish mumkin bo'lgan yondashuvlari va yo'nalishlari ochib berilgan;

mehnat bozori talablariga mos holda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda DXSH rivojlantirish asosida dual ta'limni kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqotda qo'llanilgan metod va yondashuvlar ilmiy izlanish maqsadlariga to'liq mos keladi, foydalanilgan ma'lumotlar esa O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasining rasmiy axborot resurslariga asoslangan bo'lib, ishlab chiqilgan xulosa va amaliy takliflar tegishli vakolatli tashkilotlar faoliyatiga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ta'lim xizmatlari tizimida davlat-xususiy sheriklik institutini institutsional jihatdan rivojlantirish, sheriklik faoliyatining samaradorligini baholash indikatorlarini takomillashtirish hamda ta'lim sifati va natijadorligini belgilovchi nazariy-me'yoriy asoslarni chuqurlashtirishga qaratilganligi bilan o'zining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini namoyon etadi. Mazkur takliflar ta'lim tizimida barqaror sheriklik aloqalarini shakllantirish, resurslardan oqilona foydalanish va ta'lim xizmatlari sifatining strategik boshqaruvini mustahkamlashda muhim konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati,** avvalo, ta'lim tizimida davlat va xususiy sektor o'rtasida barqaror hamkorlikni kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish bilan namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ushbu hamkorlikni tartibga soluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, ta'limning institutsional asoslarini mustahkamlashda asosiy yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotda shakllantirilgan yondashuvlar va xulosalar "Xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti", "Ta'lim iqtisodiyoti", "Kadrlarni innovatsion boshqarish" kabi zamonaviy fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini yangilash, tegishli darslik va uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqishda amaliy-metodik asos sifatida foydalanish imkoniyatini beradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** ta'lim xizmatlari ko'rsatishda davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

davlat-xususiy sherikligi asosida maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha loyihalashtirish tartibini loyihani amalga oshirish yillari va texnologik bosqichlari bo'yicha investitsiya davri, loyiha doirasidagi chora-tadbirlarning ketma-ketligi va davomiyligi tasviriy ko'rinishda, vaqt bo'yicha (grafik-reja), moliyalashtirish manbalari va hajmlari inobatga olingan holda aks ettirish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni

saqlash masalalari qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-apreldagi “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-son qarori ijrosi yuzasidan kambag‘al oilalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng muhim imtiyozlarini ishlab chiqish, davlat-xususiy sherikligi loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy Majlis Senatining Fan, ta‘lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasining 2025-yil 25-iyuldagi 14/4-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish davlat va biznes o‘rtasida sheriklik munosabatlarini takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish tizimining konseptual modeli asosida ta‘lim sifati ko‘rsatkichlariga ta‘sirini muvofiqlashtirish va ta‘lim sohasida DXSh asosidagi strategik loyihalar 59 taga yetish imkonini bergan;

davlat-xususiy sherikligining asosiy prinsiplari ta‘lim tizimiga moslashgan holda hududlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj va kambag‘al oilalarning farzandlarini ta‘lim muassasalari xizmatlaridan imtiyozli foydalanishlariga yo‘naltirish orqali takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-oktyabrdagi “Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3980-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktyabrdagi “Davlat-xususiy sheriklik sohasini takomillashtirish va kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-720-son qarori ijrosi yuzasidan kambag‘al oilalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng muhim imtiyozlarni ishlab chiqish bo‘yicha rejaviy dasturlarini qabul qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2026-yil 5-fevraldagi 03-33-682-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini ta‘lim tizimiga ijtimoiy yo‘naltirilgan tarzda moslashtirish orqali hududlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj va kambag‘al oilalar farzandlarining sifatli ta‘lim xizmatlaridan imtiyozli foydalanishini ta‘minlashni oshirish imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

davlat-xususiy sherikligining hamkorligini investitsion faolligini oshirish asosida tarbiyalanuvchilarning qamrovi past bo‘lgan hududlarda oilaviy shakldagi maktabgacha ta‘lim tizimi faoliyatini rivojlantirishning maxsus jamg‘armasini tashkil etish taklifi Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti faoliyatiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Maktabgacha va maktab ta‘limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-51-son farmoni ijrosi yuzasidan amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2026-yil 5-fevraldagi 03-33-682-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifdan foydalanish davlat-xususiy sherikligining hamkorligini investitsion faolligini oshirish asosida tarbiyalanuvchilarning qamrovi past bo‘lgan hududlarda oilaviy shakldagi maktabgacha ta‘lim tizimi faoliyatini rivojlantirishning maxsus jamg‘armasini tashkil etish zarurligi ilmiy asoslangan. Bu maxsus jamg‘arma homiylar mablag‘lari asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo‘lib,

unda davlat-xususiy sektor sheriklikning shakllari orasida xususiy sektorning investitsiya majburiyatlari bilan davlat shartnomalarini o'zida aks ettirgan ta'lim tizimiga ustuvorlik kasb etadi;

O'zbekistonda davlat-xususiy sherikligi asosidagi maktabgacha ta'lim tizimida sifat darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq qilish asosida qamrov darajasining o'sish sur'atlarining 2026-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-oktyabrda "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3980-son qarori ijrosini ta'minlashda qabul qilingan dasturlarning bajarilishida foydalanilgan (Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasining 2025-yil 25-iyuldagi 14/4-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifdan foydalanish davlat-xususiy sheriklik loyihalarining amalga oshirilishida moliyaviy imkoniyatlarni oshirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, respublika miqyosida 5 ta, xorijiy va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada 7 ta muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Ushbu dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsining tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 138 betdan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Ta'lim xizmatlari ko'rsatishda davlat-xususiy sherikchiligini tashkil qilishning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida ta'lim tizimida davlat-xususiy sherikchiligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, mazmuni va uning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim xizmatlari ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligining asosiy turlari va shakllari asoslab berilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishda davlat bilan xususiy sheriklar o'rtasidagi mulkiy hamkorlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy muammolarni joylarda bartaraf etishda xususiy sektor bilan davlat sektorini hamkorligi munosabatlari muhim o'rin egallamoqda.

DXSH loyihalarining ustunligi tarmoq rivojlanishining garovi sanalgan sheriklik munosabatlari uzoq muddatli xarakterga ega ekanligi hisoblanadi. Bunday sheriklik xususiy sektor resurslarini jalb qilish imkoniyati tufayli nafaqat ishlab chiqarish, transport, ta'limda ham loyihalarni amalga oshirish orqali davlat-xususiy sherikligining rivojlanish uslubiyatini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Bu borada rivojlangan davlatlarning tajribalariga ko'ra DXSh ijtimoiy ustuvorlik darajasi yuqori yoki mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarda yaxshiroq rivojlanadi.

Davlat-xususiy sherikligi sohasida ta'lim sohasida bir qator rivojlangan davlatlar, jumladan, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa davlatlarning tajribalarini tadqiq qilish shundan dalolat beradiki, davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari hamisha davlatlarning doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu o'rinda Jahon bankining ta'rifiga e'tibor qaratamiz<sup>9</sup>: «davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'rta yoki uzoq muddatli shartnomalar bo'lib, ular doirasida davlat sektorining javobgarlik sohasida bo'lgan, ammo xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar taqdim etiladi, bunda infratuzilmani rivojlantirish va (yoki) davlat xizmatlarini ko'rsatish masalalari o'rtasida vazifalarni aniq ajratish mavjud» deb ta'riflaydi.

Ilmiy yangilikning mohiyati taklif etilayotgan model xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti nuqtai nazaridan quyidagi ilmiy yangiliklarni o'z ichiga oladi – investitsiya davrini faqat qurilish bosqichi emas, balki ekspluatatsiyadan keyingi 3 yillik monitoring davrini ham qamrab oluvchi to'liq iqtisodiy sikl sifatida talqin etish, moliyalashtirish manbalarini vaqt va texnologik bosqichlarga proporsional taqsimlash orqali pul oqimlarini optimallashtirish. Shuningdek, loyiha ijtimoiy samarasini (qamrov, bandlik, ayollar ish bilan ta'minlanishi) iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan integratsiyalash, davlat subsidiyasini doimiy emas, quvvatdan foydalanish koeffitsiyentiga bog'langan rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida joriy etish va raqamli monitoring orqali xarajat samaradorligini aniq hisoblash hamda xizmat tannaxini pasaytirishga ham asosiy e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotlarga asoslanib, davlat-xususiy sherikligi asosida maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha loyihalashtirish, sinovdan o'tkazish, loyihani amalga oshirish yillari va texnologik bosqichlari bo'yicha investitsiya davri, loyiha doirasidagi chora-tadbirlarning ketma-ketligi va davomiyligi tasviriy ko'rinishda, vaqt bo'yicha (grafik-reja), moliyalashtirish manbalari va hajmlari inobatga olingan holda aks ettirish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan. Mazkur taklifda 2 fazali model

---

<sup>9</sup>The World Bank / Всемирный Банк - What are Public Private Partnerships / Что такое государственно-частное партнерство [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://ppp.worldbank.org/public-private-partnership/overview/what-are-public-privatepartnerships>

ishlab chiqilgan bo‘lib, unda birinchi fazada (2025-2026) maktabgacha ta’lim tizimida raqamli infratuzilma yaratish, ikkinchi fazada (2026-2027) tarbiya jarayonida maksimal tajriba asosida modullashtirilgan interaktiv platformalar orqali kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish nazarda tutilgan (1-jadval).

**1-jadval**

**O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikligi asosida maktabgacha ta’lim tizimi raqobatbardoshligini oshirish tizimining konseptual modeli<sup>10</sup>**

<b>1-FAZA</b>	<b>2-FAZA</b>	<b>Innovatsion yechimlar:</b>
<b>Raqamli infratuzilma (2025-2026) Maktabgacha ta’lim tizimida asosiy texnologik bazani yaratish va raqamli platformalarni joriy qilish;</b>	<u>Kredit portfelining diversifikatsiya tizimi (2026-2027)</u> DXSh asosidagi MTTni tashkil etish uchun imtiyozli kreditlar loyiha tashabbuskorlarini qo‘llab-quvvatlash;	Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali inson kapitalini rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratib berish, ularning samaradorligini tizimli asosda baholashga qaratilgan nazariy-uslubiy tadqiqotlar;
<b>Asosiy funksiyalar: -Xodimlarning raqamli sertifikat va ishchi ko‘nikmalar nazorati tizimi -Tarbiya tizimi uchun onlayn trening dasturlar -Hududlarda qamrovni oshirishning marketing bazasi va analitika dasturlari -Raqamli HR platformalarini yaratish -Mobil ilovalari resurs boshqaruv tizimi va MTT moliyaviy mablag‘laridan samarali foydalanish dasturlari</b>	Asosiy funksiyalar: -Maksimal modullar orqali MTT va hudud integratsiyasi -Emotsional va raqamli kompetensiyalarni tarbiyalash -Adaptiv treninglar -Ta’lim xizmatlari bo‘yicha shartnomalarning moslashuvchanligini ta’minlash; -Mobil kichik o‘yinlar (Yevropa standarti) -Maksimal ichki ta’limotlar tizimi -maktabgacha ta’lim tashkiloti-korxonada davlat tizimi	Innovatsion yechimlar: -xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlari uchun erkin narx tizimini bosqichma-bosqich joriy etib borish lozim; -davlat va xususiy ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlarining sifati ishonchli standartlarini yanada zamonaviylashtirish asosida baholanishi zarur -Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ushbu mexanizmni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni raqamlashtirish zarur.

Muallif tomonidan davlat-xususiy sherikligi asosida maktabgacha ta’lim tizimi bo‘yicha loyihalashtirish tartibini loyihani amalga oshirish yillari va texnologik bosqichlari bo‘yicha investitsiya davri, loyiha doirasidagi chora-tadbirlarning ketma-ketligi va davomiyligi tasviriy ko‘rinishda, vaqt bo‘yicha (grafik-reja), moliyalashtirish manbalari va hajmlari inobatga olingan holda aks ettirish orqali takomillashtirish taklifi ilgari surilgan (2-jadval).

<sup>10</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

DXSh asosida maktabgacha ta'lim loyihalarini amalga oshirishning integral investitsiya-texnologik modeli <sup>11</sup>

Bosqich	Davomiyligi (yil/oy)	Investitsiya davri tarkibi	Texnologik jarayonlar	Moliyalashtirish manbalari	Kutiladigan iqtisodiy natija
Loyiha oldi tahlil bosqichi	0–6 oy	Talab va demografiya tahlili, hududiy ehtiyojni aniqlash	GIS tahlil, aholi prognoz modeli, xizmat quvvati hisob-kitobi	Davlat budjeti (TIA), grantlar	Xizmat bozori sig'imini aniqlash, risklarni kamaytirish
TIA va DXSh modeli shakllantirish	6–12 oy	Texnik-iqtisodiy asos, tarif siyosati, sheriklik shaklini tanlash	Moliyaviy modellashtirish	Davlat budjeti-xususiy konsalting xarajatlari	Loyihaning investitsiya jozibadorligini ta'minlash
Moliyalashtirishni yopish (Financial Close)	12–18 oy	Kredit shartnomalar, kafolatlar, subsidiya mexanizmlari	Bank skoring, risk-taqsimlash matritsasi	Tijorat banklari, xususiy investor, davlat kafolati, xalqaro moliya institutlari	Investitsiya xavfini diversifikatsiya qilish
Qurilish va jihozlash	18–30 oy	Infratuzilma barpo etish, modulli binolar qurish	Energiya samarador texnologiyalar, raqamli boshqaruv tizimi	Xususiy investitsiya (60–70%), davlat subsidiyasi (30–40%)	Asosiy kapital shakllanishi
Ekspluatatsiyaga topshirish	30–36 oy	Litsenziyalash, kadrlar tayyorlash, test rejimi	ERP tizimi, elektron navbat, onlayn monitoring	Operatsion daromad + davlat kompensatsiyasi	Xizmat ko'rsatish boshlanishi
Ekspluatatsiya va monitoring	3–6 yil	Quvvatdan foydalanish koeffitsiyenti nazorati	KPI monitoring, xarajat samaradorligi tahlili	Ota-ona to'lovi, davlat vaucheri, subsidiya	Barqaror pul oqimi, ijtimoiy samara.

Takomillashtirilgan investitsiya-texnologik model davlat-xususiy sherikligi asosida maktabgacha ta'lim xizmatlarini tashkil etishda investitsiya jarayonini

<sup>11</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tizimli, bosqichli va integratsiyalashgan holda boshqarish imkonini beradi. Unda investitsiya davri loyiha oldi tahlil bosqichidan tortib, ekspluatatsiyadan keyingi uch yillik monitoring davrigacha qamrab olingan bo‘lib, bu yondashuv xizmat ko‘rsatish iqtisodiyotida loyiha samaradorligini uzoq muddatli natija asosida baholash imkonini yaratadi. Modelda moliyalashtirish manbalari texnologik bosqichlar bilan o‘zaro bog‘langan holda taqsimlangani kapital tuzilmasining barqarorligini ta‘minlaydi va risklarni diversifikatsiya qiladi. Shu bilan birga, samaradorlik ko‘rsatkichlarining (NPV, IRR, quvvatdan foydalanish koeffitsiyenti, xizmat qamrovi) bosqichlar kesimida belgilanishi investitsiya jarayoni ustidan natijaga yo‘naltirilgan nazorat mexanizmlarini shakllantiradi.

Muallifning fikricha, respublikamizda bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi bilan davlatning roli sezilarli darajada kamayib bordi va asosiy obyektlarni boshqarish funksiyalari asta-sekinlik bilan xususiy sektorga o‘tkazila boshladi. Shuningdek, ilgari surilayotgan model orqali xususiy tadbirkorlik bilan istiqbolli hamkorlikni amalga oshirish hamda raqobatni davlat tomonidan tartibga solish vositalari va choralari bilan optimal darajada uyg‘unligini ta‘minlash zarur hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Davlat-xususiy sherikchiligiga asoslangan maktabgacha ta‘lim xizmatlarining rivojlanish omillari va tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida davlat-xususiy sherikchiligi asosida maktabgacha ta‘lim xizmatlari ko‘rsatishning rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari, zamonaviy sharoitda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida xizmatlar ko‘rsatishning integratsion jarayonlari va davlat-xususiy sherikligi asosida maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish istiqbollari tadqiq qilingan.

Tadqiqot ishida davlat-xususiy sherikligining asosiy prinsiplari ta‘lim tizimiga moslashtirilgan holda hududlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj va kambag‘al oilalarning farzandlarini ta‘lim muassasalari xizmatlaridan imtiyozli foydalanishlariga yo‘naltirish orqali takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan. Mazkur ilmiy yangilikning mohiyati shundaki, davlat-xususiy sherikligi (DXSh)ning an‘anaviy tamoyillari — risklarni taqsimlash, uzoq muddatli shartnoma, xususiy investitsiya jalb qilish va natijaga asoslangan moliyalashtirish — ta‘lim tizimining ijtimoiy xususiyatlariga moslashtirilgan holda qayta talqin etiladi. Taklifga ko‘ra, DXSh faqat infratuzilma yaratish yoki xizmat hajmini oshirish vositasi emas, balki hududlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj va kambag‘al oilalar farzandlari uchun ta‘lim xizmatlaridan imtiyozli foydalanishni ta‘minlovchi ijtimoiy yo‘naltirilgan mexanizm sifatida takomillashtiriladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda davlat-xususiy sherikchiligi asosida ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim xizmatlari bozorining holati tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, respublikamizda faoliyat yuritayotgan nodavlat maktabgacha

ta'lim muassasalari soni 2023-yilda 22822 tani tashkil etib, ularda tarbiyalanayotgan bolalar qamrovi 746426 nafarni tashkil etgan (3-jadval).

### 3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonining o'zgarishi<sup>12</sup> (ming birl.)

Nodavlat maktabgacha muassasalari tuzilmasidagi ta'lim	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024 yilda 2023 yilga nisbatan o'sish, %
<b>Nodavlat ta'lim muassasalari soni,</b>	7522	12057	21230	22822	25529	111,9
Ularda qamrov, ming kishi	250677	420571	610339	746426	793054	106,2
<b>Shu jumladan:</b>						
Xususiy ta'lim muassasalari	776	788	756	833	902	108,2
Ularda qamrov, ming kishi	46848	68140	51675	69005	72839	105,6
DXSh soni	692	1025	1144	1313	1492	113,6
Ularda qamrov, ming kishi	59097	104524	101020	123386	149470	121,1
Oilaviy ta'lim muassasalari soni	6084	10244	19330	20676	21943	106,1
Ularda qamrov, ming kishi	144732	247907	457644	554035	582684	105,1

3-jadvalda nodavlat tuzilmasidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni va unda qamrov darajasi keltirilgan bo'lib, tahlil qilinayotgan davrda nodavlat ta'lim muassasalari soni 3,5 martaga o'sib 2024-yilda 25529 taga yetgan, qamrov darajasi ham 3 barobardan oshgan. DXSh 2024-yilda 1492 taga yetib, 2023-yilga nisbatan 113,6 % ga o'sib borgan.

Davlat-xususiy sherikligi asosida maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha loyihalashtirish, sinovdan o'tkazish, uni joriy etish, rivojlantirish bosqichlari yondoshuviga ko'ra raqobatbardoshligini oshirish tizimining konseptual modeli ishlab chiqilgan. Natijada, mazkur model DXSh loyihalarini faqat infratuzilmaviy obyekt sifatida emas, balki barqaror xizmat ko'rsatish tizimi sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu yerda davlat tomonidan subsidiya, vaucher yoki kompensatsiya mexanizmlari orqali xususiy ta'lim muassasalari xizmatlariga teng imkoniyat yaratiladi. Ya'ni, xususiy sherik xizmat ko'rsatadi, davlat esa ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Natijada ta'lim xizmatlariga qamrov kengayadi, ijtimoiy adolat tamoyili kuchayadi, budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish ta'minlanadi, DXShning ijtimoiy samaradorligi oshadi. Shu jihatdan mazkur taklif xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti doirasida DXSh mexanizmlarini ijtimoiy inkluzivlik tamoyili asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuv hisoblanadi (4-jadval).

<sup>12</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4- jadval

**DXSh tamoyillarini ta'lim tizimida ijtimoiy yo'naltirilgan takomillashtirish yo'nalishlari<sup>13</sup>**

<b>DXSh asosiy prinsipi</b>	<b>Ta'lim tizimiga moslashtirish mexanizmi</b>	<b>Ijtimoiy yo'naltirilgan instrument</b>	<b>Kutiladigan natija</b>
Risklarni taqsimlash	Davlat – ijtimoiy majburiyat, xususiy sherik – xizmat sifati	Davlat kafolati va subsidiya	Xizmat barqarorligi
Natijaga asoslangan moliyalashtirish	Qamrov va sifat ko'rsatkichlariga bog'liq to'lov	Vaucher yoki kompensatsiya mexanizmi	Kam ta'minlangan bolalar qamrovi oshadi
Uzoq muddatli sheriklik	Barqaror ijtimoiy buyurtma	Ijtimoiy kontrakt	Investitsiya jozibadorligi
Samaradorlik va shaffoflik	Raqamli monitoring va KPI	Elektron hisobot tizimi	Budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish
Inkluzivlik	Kambag'al va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga imtiyoz	Differensial to'lov siyosati	Ijtimoiy adolat ta'minlanadi

Yuqoridagi jadvalda taklif etilgan yondashuv davlat-xususiy sherikligining an'anaviy iqtisodiy prinsiplarini ta'lim tizimining ijtimoiy vazifalari bilan integratsiya qilishga qaratilgan. Unda DXSh mexanizmi faqat investitsiya jalb qilish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun ta'lim xizmatlaridan teng foydalanishni ta'minlovchi inkluziv iqtisodiy instrument sifatida talqin etiladi.


Maktabgacha ta'lim muassasalarida rivojlanish tendensiyalariga quyidagi omillar ham bevosita ta'sir ko'rsatadi: egiluvchanligi, sifat darajasi, raqobat, otonalarning talabiga ko'ra imtiyozlarning belgilanishi va boshqalar.

Tadqiqot davomida davlat-xususiy sherikligining asosiy prinsiplari ta'lim tizimiga moslashgan holda hududlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj va kambag'al oilalarning farzandlarini ta'lim muassasalari xizmatlaridan imtiyozli foydalanishlariga yo'naltirishning uslubiy yondoshuvlari ishlab chiqilgan.

Mazkur model xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan budjet samaradorligini oshirish, xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish va ta'lim xizmatlarida ijtimoiy adolatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda ta'lim sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlar DXSh asosida maktabgacha ta'lim tizimining yo'nalishlarda qamrovni oshirish, kambag'al oilalarni ham qo'llab-quvvatlashga qaratilgan natijalar darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ta'lim tizimida maktabgacha

<sup>13</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ta'lim muassasalarida DXSh asosida rivojlanish tendensiyalari ko'rsatilgan (1-rasm).



**1-rasm. DXSh asosida maktabgacha ta'lim muassasalarida rivojlanish tendensiyalari<sup>14</sup>**

Maktabgacha ta'lim tizimini DXSh asosida rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari zamonaviy mexanizmlari, jumladan DXShning o'nga yaqin shakllarining rivojlanishida ifodalanmoqda. Bu borada ayniqsa, hududlarning bu tizim bo'yicha faoliyatini rivojlantirish, uning qamrovini oshirish, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish singari masalalar dolzarb bo'lib borayotganligi uchun bu tuzilmaga nafaqat iqtisodiy kompleks balki mahalliy davlat hokimiyati organlari, investorlarning mablag'larini ham ko'proq jalb qilish mazkur tizimni rivojlantirishning iqtisodiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining DXSh tizimida infratuzilmani tashkil etish, uchun lozim bo'lgan infratuzilmani (ta'lim binosi, talabalar turar joyi, laboratoriyalar, sport majmualari, ilmiy tadqiqot muassasalari) tashkil etish masalasiga ahamiyat qaratiladi. Bu sherikchilik munosabatlaridagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanib, budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarini kengaytirishga yo'naltirilgan sheriklik investitsion loyihalarini amalga oshirishdan iboratdir.

Ushbu yondashuv orqali davlat-xususiy sherikligi doirasida investitsiyalarni maqsadli taqsimlash, ijtimoiy ahamiyatga ega hududlarda ta'lim qamrovini oshirish, moliyalashtirishning barqaror va rag'batlantiruvchi modelini shakllantirish imkoniyatlari kengayadi. Natijada maktabgacha ta'lim tizimida hududiy

<sup>14</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

disproportsiyalarni kamaytirishga qaratilgan yangi moliyaviy-institutsional mexanizm taklif qilingan (5-jadval).

### 5-jadval

#### Davlat-xususiy sherikligi asosida oilaviy maktabgacha ta'limni rivojlantirish maxsus jamg'armasining ilmiy-amaliy modeli <sup>15</sup>

<b>Tarkibiy element</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Ilmiy yangilik jihati</b>	<b>Kutilayotgan amaliy natija</b>
Maqsad	Qamrovi past hududlarda oilaviy shakldagi maktabgacha ta'limni rivojlantirish	DXShni ijtimoiy yo'naltirilgan investitsion mexanizm sifatida qayta konseptualizatsiya qilish	MTT qamrovini oshirish, hududiy tengsizlikni qisqartirish
Moliyalashtirish manbalari	Davlat subsidiyasi, xususiy investitsiyalar, grantlar, ijtimoiy buyurtma	Diversifikatsiyalashgan va maqsadli moliyalashtirish modeli taklif etildi	Barqaror moliyaviy baza shakllanadi
Investitsion rag'batlantirish	Soliq imtiyozlari, subsidiya, kompensatsiya mexanizmlari	Investitsion faollikni oshirishning kompleks rag'batlantirish tizimi ishlab chiqildi	Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish
Boshqaruv mexanizmi	Jamg'arma – davlat va xususiy sheriklar ishtirokidagi kuzatuv kengashi orqali	Institutsional boshqaruvning shaffof va hisobdor modeli asoslandi	Samaradorlik va shaffoflik ta'minlanadi
Mablag' taqsimoti mezonlari	Qamrov darajasi, demografik ko'rsatkich, ijtimoiy ehtiyoj indeksi	Resurslarni hududiy ehtiyoj asosida taqsimlash metodikasi taklif etildi	Eng ehtiyojmand hududlarga ustuvorlik beriladi
Ijtimoiy samara indikatorlari	Qamrov foizi, bandlikka ta'sir, ayollar mehnat bozori ishtirokini oshirish	Natijaga asoslangan baholash tizimi ishlab chiqildi	Kambag'allikni qisqartirishga hissa
Barqarorlik mexanizmi	Qayta investitsiya, ijtimoiy sheriklik, monitoring	DXShning uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik modeli ilmiy asoslandi	Tizimning uzluksiz faoliyati ta'minlanadi

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sherikligi asosida oilaviy shakldagi maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun maxsus jamg'arma tashkil etish investitsion faollikni rag'batlantiruvchi, ijtimoiy yo'naltirilgan va hududiy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan kompleks moliyaviy-institutsional mexanizmni ifoda etadi. Mazkur model moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish orqali barqaror resurs bazasini yaratadi, xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish orqali davlat budjeti yukini optimallashtiradi, mablag'larni hududiy ehtiyoj va qamrov darajasi asosida maqsadli taqsimlash imkonini beradi, natijaga asoslangan monitoring va baholash orqali samaradorlikni ta'minlaydi.

<sup>15</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Muallifning fikricha, taklif etilgan jamg'arma modeli maktabgacha ta'lim qamrovi past bo'lgan hududlarda institutsional infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va inson kapitali salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. U davlat-xususiy sherikligining ijtimoiy sohadagi amaliy samaradorligini ta'minlaydigan ilmiy asoslangan yangi yondashuv sifatida baholanadi.

Muallifning fikricha davlat-xususiy sheriklik modeli maktabgacha ta'lim sohasida nafaqat qamrovni oshirdi va ijtimoiy foyda keltirdi, balki jarayonning iqtisodiy samaradorligini ham ta'minladi. Samaradorlik nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda, DXSH loyihalari davlat va xususiy sektorning eng yaxshi jihatlarini birlashtirib, resurslardan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlari orqali aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar qamrovi jadal sur'atlarda kengaymoqda. 2016–2025-yillar oralig'idagi rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, DXSH asosida qamrab olingan aholining soni 2016-yildagi 11,8 ming kishidan 2025-yilda 183 ming kishigacha ortib, qamrov darajasi qariyb 14,8 baravar o'sgan. Bu esa ushbu mexanizmning iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlash barobarida, davlat sektori bilan xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning amaliy ifodasidir. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2017-yildan boshlab DXSH loyihalari orqali aholining qamrab olinishi sezilarli darajada ortib borgan. Tadqiqotchi tomonidan O'zbekistonda davlat-xususiy sherikligi asosidagi maktabgacha ta'lim tizimida sifat darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq qilish asosida qamrov darajasining o'sish sur'atlarining 2026–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan (6-jadval).

## 6-jadval


### Davlat-xususiy sherikligi asosidagi maktabgacha ta'lim tizimi qamrov darajasi<sup>16</sup>

Yil	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
DXSH qamrov darajasi, ming kishi	11793,4	30729,7	49666	59097	104524	101020	123386	144347,5	163283,8	182878
Oldingi yilga nisbatan o'sish (%)	-	+160,2	+61,9	+18,9	+76,9	-3,3	+22,2	+16,9	+13,2	+12

Jumladan, 2017-yilda bu ko'rsatkich 30,7 ming kishini tashkil etib, 2016-yilga nisbatan 2,6 barobar oshgan. Keyingi yillarda bu trend davom etib, 2018-yilda 49,7 ming, 2019-yilda esa 59,1 ming kishiga yetgan. Ayniqsa, 2020-yildan boshlab DXSH qamrovining keskin o'sishi kuzatiladi: 2020-yilda 104,5 ming, 2022-yilda esa 123,4 ming kishini tashkil qilgan. 2023–2025-yillarda ham yuqori dinamika saqlanib, DXSH qamroviga mos ravishda 144,3 ming va 183 ming kishi jalb etilgan.

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Bu holat sohaning institutsional rivojlanayotganini, xususiyl sektorga nisbatan davlat ishonchining ortib borayotganini hamda aholining bunday sheriklik modeliga nisbatan talabining kuchayganini ko'rsatadi (2-rasm).



## **2-rasm. Davlat-xususiyl sherikligi asosidagi maktabgacha ta'lim tizimi qamrov dinamikasi<sup>17</sup>**

Prognozlash metodlari orasida Autoregressive Integrated Moving Average (ARIMA) modeli keng qo'llaniladi. Ushbu model vaqt qatorlari (time series) ma'lumotlariga asoslangan holda prognoz qilish uchun ishlatiladi.

ARIMA modeli uchta asosiy komponentdan iborat:

AR (Autoregressive) – Avtoregressiv qism: O'zgaruvchining hozirgi qiymati uning oldingi qiymatlariga bog'liq bo'lgan jarayonni ifodalaydi.

I (Integrated) – Integratsiyalangan qism: Qator statsionar holatga keltirilishi uchun necha marta differensial olish zarurligini bildiradi.

MA (Moving Average) – Siljiydigan o'rtacha qism: Xatoliklarning oldingi qiymatlariga bog'liq qismni ifodalaydi.

ARIMA modeli quyidagi shaklda ifodalanadi:

$$Y_t = \phi_1 Y_{t-1} + \phi_2 Y_{t-2} + \dots + \phi_p Y_{t-p} + \theta_1 \epsilon_{t-1} + \theta_2 \epsilon_{t-2} + \dots + \theta_q \epsilon_{t-q} + \epsilon_t \quad (1)$$

bunda,

<sup>17</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

$Y_t$  - t momentdagi kuzatilgan qiymat;  
 $\varphi_i$  - avtoregressiv koeffitsiyentlar;  
 $\Theta_j$  - siljiydigan o'rtacha komponentning koeffitsiyentlari;  
 $\epsilon_t$  - tasodifiy xatolik.

ARIMA modelining umumiy ko'rinishi ARIMA(p, d, q), (1,2,1) shaklida yoziladi:

1(p) – avtoregressiya (AR) darajasi;

2(d) – differensial olish darajasi (statsionarlikka erishish uchun qator necha marta differensial olinishi kerak);

3(q) – siljiydigan o'rtacha (MA) komponent darajasi;

modelning matematik ifodasi quyidagi tenglama

Davlat-xususiy sherikligi asosidagi maktabgacha ta'lim tizimi qamrov darajasini 2030-yilgacha prognozlash dastlab vaqtli qatorlarni statsionarlikka tekshirish lozim. ARIMA modeli samarali ishlashi uchun ma'lumotlar statsionar bo'lishi kerak, ya'ni vaqt o'tishi bilan uning o'rtacha qiymati va dispersiyasi o'zgarmas bo'lishi lozim. Buni Dickey-Fuller testi yordamida tekshirish mumkin:

$H_0$ : Qator statsionar emas vs  $H_1$ : Qator statsionar

Agar test natijasida p-qiymat 0.05 dan kichik bo'lsa, qator statsionardir. Agar statsionar bo'lmasa, birinchi tartibli differensial olinadi.

Davlat-xususiy sherikligi asosidagi maktabgacha ta'lim tizimi qamrov darajasi uchun Dickey-Fuller testi natijalari keltirilgan (3-rasm).

Dickey-Fuller test for unit root		Number of obs = 23		
Test Statistic	1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value	
Z(t)	10.578	-3.750	-3.000	-2.630


MacKinnon approximate p-value for Z(t) = 1.0000

### 3-rasm. Davlat-xususiy sherikligi asosidagi maktabgacha ta'lim tizimi qamrov darajasi uchun Dickey-Fuller testi natijalari<sup>18</sup>

Dickey-Fuller testi natijalaringiz shuni ko'rsatadiki, Test statistikasi (Z(t)) = 10.578, 1%, 5%, 10% kritik qiymatlar: (-3.750, -3.000, -2.630), P-qiymat = 1.0000 (juda katta).  $H_0$  gipotezasi (qator statsionar emas) rad etilmaydi, ya'ni Davlat-xususiy sherikligi asosidagi maktabgacha ta'lim tizimi qamrov darajasi vaqtli


<sup>18</sup> Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida Stata 14 MP dasturida tayyorlangan.

qatorlari statsionar emas. Endi ARIMA(p,2,q) modelini qurishimiz kerak. Optimal p va q qiymatlarini aniqlash uchun ACF/PACF grafigini tahlil qilamiz (4-rasm).



**4-rasm. Optimal p va q qiymatlarini aniqlash uchun ACF grafigi<sup>19</sup>**

PACF grafigida lag 1 dan keyin sezilarli pasayish bo‘lmaydi, odatda, agar birinchi yoki ikkinchi lag sezilarli bo‘lsa, MA(q) tartibi shu qiymatga teng bo‘ladi. Bizning grafigimizda katta laglar sekin so‘nmoqda, bu q qiymati kichik bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi (5-rasm).



**5-rasm. Optimal p va q qiymatlarini aniqlash uchun PACF grafigi<sup>20</sup>**

<sup>19</sup> Stata 14 MP dasturida tayyorlangan.

<sup>20</sup> Stata 14 MP dasturida tayyorlangan.

1-va 4-laglarda sezilarli qiymatlar bor, lekin keyingi laglarda sezilarli oshish kuzatilmogda. Odatda, bir yoki ikkita sezilarli lag bo'lsa, p qiymati shunga yaqin tanlanadi. Shuning uchun biz  $p=2$  deb olamiz.

Eng yuqori sifatli modelni tanlash maqsadida ARIMA(1,2,1), ARIMA(4,2,1), ARIMA(1,2,2) modellarini tuzib olib, AIC/BIC bo'yicha eng yaxshisini tanlaymiz. AIC va BIC eng kichik bo'lgan model – eng optimal model hisoblanadi (7-jadval).

**7-jadval**

**Optimal ARIMA modelini tanlash<sup>21</sup>**

Akaike's information criterion and Bayesian information criterion Obs	ll(null)	ll(model)	df	AIC	BIC
ARIMA(1,2,2)		-355.113	5	720.225	725.680
ARIMA(4,2,1)		-354.9099	7	723.8199	731.4572
ARIMA(1,2,1)		-356.0467	4	720.0934	724.4576

Demak, tahlil natijalariga ko'ra bizda ARIMA(1,2,1) eng kichik AIC va BIC ko'rsatkichlariga ega. Davlat-xususiy sherikligi asosidagi maktabgacha ta'lim tizimi qamrov darajasini 2030-yilgacha prognoz qilishda aynan shu modeldan foydalanish maqsadga muvofiqdir (8-jadval).

**8-jadval**

**Davlat-xususiy sherikligi asosidagi maktabgacha ta'lim tizimi qamrov darajasini o'sish sur'atlari prognoz ko'rsatkichlari (%)<sup>22</sup>**

Yillar	O'sish quyi chegaralari	Optimal o'sish sur'atlari	O'sish yuqori chegaralari
2026	17,9771	28,48261	38,98812
2027	17,61664	27,71039	37,80414
2028	17,53804	27,99886	38,45968
2029	17,29729	28,22477	39,15224
2030	17,54019	28,21118	38,88217

Maktabgacha ta'lim tizimini davlat-xususiy sheriklik (DXSH) modeli orqali kengaytirish strategiyasi O'zbekistonda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv nafaqat amaldagi qamrov darajasini oshirishga, balki uning barqaror o'sishini ta'minlashga

<sup>21</sup> Stata 14 MP dasturida tayyorlangan.

<sup>22</sup> Stata 14 MP dasturida tayyorlangan.

xizmat qilmoqda. 2026–2030-yillar uchun ishlab chiqilgan o‘shish sur‘atlari prognozi ushbu jarayonning istiqbolli tendensiyalarini ochib beradi. 10-Jadvalga muvofiq, 2026-yildan boshlab DXSH asosida qamrab olinayotgan bolalar sonining yillik optimal o‘shish sur‘ati 28,5% miqdorida baholanmoqda. Prognoz natijalari shuni ko‘rsatadiki, keyingi yillarda ushbu sur‘at nisbatan barqaror saqlanib, 2026-yilda 28,5%, 2027–2028-yillarda taxminan 27,7–28,0% atrofida bo‘ladi. Bu ko‘rsatkichlar maktabgacha ta‘lim sohasida ham iqtisodiy, ham tashkiliy salohiyatning nisbatan muvozanatli rivojlanishidan darak beradi.

Umuman olganda, prognoz qilingan optimal o‘shish sur‘atlari 2026-yildan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda har yili 25–30% atrofida bo‘lishi ehtimoli yuqori bo‘lib, bu holat O‘zbekiston hukumati tomonidan belgilangan maktabgacha ta‘limni 100% qamrovga yetkazish maqsadiga xizmat qiladi. Eng muhimi, bu yondashuv nafaqat statistika ko‘rsatkichlarini, balki ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan strategik siyosatni ifodalaydi.

Prognozda ko‘rsatilgan quyi chegaralar (17% atrofida) konservativ ssenariyda ham barqaror o‘shish ta‘minlanishini bildiradi, yuqori chegaralar (38–40%) esa qulay muhitda DXSH salohiyatining yanada to‘liq ro‘yobga chiqishini anglatadi.

Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish mumkin:

1. Strategik rejalashtirishda prognoz sur‘atlaridan foydalanish. Maktabgacha ta‘lim sohasidagi davlat strategiyalari 2030-yilgacha bo‘lgan o‘shish ssenariylariga asoslangan holda shakllantirilmog‘i lozim. Ayniqsa, yuqori ssenariyda belgilangan 38–40% yillik o‘shish darajasiga erishish uchun xususiy investorlar uchun rag‘batlar tizimi kengaytirilishi zarur.

2. Hududlar kesimida maqsadli DXSH loyihalarini amalga oshirish. Respublikadagi aholisi zich hududlarda (ayniqsa Toshkent shahri, Farg‘ona vodiysi, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari) DXSH orqali maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha alohida hududiy dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

3. Normativ-huquqiy asosni takomillashtirish. DXSH loyihalarining shaffofligi, barqarorligi va investitsion jozibadorligini oshirish uchun davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchilik bazasi xalqaro standartlarga yaqinlashtirilishi zarur.

4. Monitoring va baholash tizimini kuchaytirish. DXSH asosida tashkil etilgan maktabgacha ta‘lim muassasalarining sifati, moliyaviy barqarorligi va qamrov darajasining monitoringi doimiy asosda amalga oshirilib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi baholanmog‘i lozim.

5. Soliq va moliyaviy rag‘batlar tizimini yanada takomillashtirish. Xususiy investorlar uchun yer ajratish, kredit foizlarini subsidiya qilish, soliq imtiyozlari va davlat kafolatlari ko‘rinishida qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari joriy etish zarur.

6. Ijtimoiy-iqtisodiy foyda samaradorligini o‘lchovchi indikatorlar joriy etish. DXSH loyihalarining samaradorligini baholashda nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar,

balki ijtimoiy ta'sir (ayollar bandligi, bolalar rivoji, oilalarga qulaylik) kabi indikatorlar ham hisobga olinmog'i lozim.

## XULOSA

1. Iqtisodiyotda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etishdan avval chuqur tadqiq qilinishi, milliy iqtisodiyot rivojlanish holati, darajasidan kelib chiqib, O'zbekistonga xos xususiyatlari asosida milliy mexanizm ishlab chiqilishi va joriy etilishi ko'zlangan maqsadga erishish garovi bo'lib xizmat qiladi. Aynan, tadqiqot jarayonida, ishlash amaliyoti davrida ham juda ko'p guvohi bo'ldikki, aksariyat me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan normativlar amaliyotga umuman mos kelmaydi. Fikrimizcha, mazkur nomuvofiqliklarning boisi amalga oshirilmagan chuqur tadqiqotlar va ushbu tadqiqotlarga tayanilgan holda ishlab chiqilmagan strategiya, konsepsiya, chora-tadbir va "yo'l xaritalar" hisoblanadi.

2. Maktabgacha ta'lim tizimiga davlat-xususiy sheriklik mexanizmining joriy etilishi dolzarb va samarali hisoblanadi. Xususiy sektor vakillari moddiy va ma'naviy resurslari, tajribasi, rag'batlantirish tizimi va boshqa afzalliklari davlat budjetidan katta xarajat talab qilmasdan maktabgacha ta'lim tizimini tez rivojlantirish va zamonaviylashtirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimidagi davlat-xususiy sheriklik ayrim salbiy tendensiyalarni bartaraf etish, ayniqsa, boshqarish va sifatni ta'minlash sohasidagi kamchiliklarni bosqichma-bosqich yo'q qilib borish natijasida, shaffof tizimning vujudga kelishiga xizmat qiladi. Natijada, respublikada iqtisodiy vaziyatning barqarorlashuvi, iqtisodiyot tarmoqlarining o'sish dinamikasi, siyosiy hayotda demokratik tamoyillarning chuqurlashuvi xususiy sektorning o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirishi uchun ancha qulay sharoitlar yaratadi, eng muhim omil kambag'allikning kelib chiqishining oldini olishga xizmat qiladi.

3. Tadqiqot ishida maktabgacha ta'lim tizimini DXSh asosida rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari zamonaviy mexanizmlari, jumladan DXShning o'nga yaqin shakllarining rivojlanishida ifodalanadi. Bu borada ayniqsa, hududlarning bu tizim bo'yicha faoliyatini rivojlantirish, uning qamrovini oshirish, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish singari masalalar dolzarb bo'lib borayotganligi uchun bu tuzilmaga nafaqat iqtisodiy kompleks balki mahalliy davlat hokimiyati organlari, investorlarning mablag'larini ham ko'proq jalb qilish mazkur tizimni rivojlantirishning iqtisodiy vositalaridan biri bo'lishi muallif tomonidan asoslangan.

4. Xalqaro tashkilotlar, dunyoning rivojlangan davlatlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmining joriy etilishi borasida boy tajriba to'plangan bo'lib, respublikada ushbu tajribani yanada chuqurroq o'rganish, ularning ijobiy natijalaridan milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasi va milliy mentalitetdan kelib chiqib, ijodiy qo'llashning aniq chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Maktabgacha ta'lim xizmatlari nodavlat sektorini yanada rivojlantirish, bolalarning maktabgacha ta'lim tizimiga kengroq qamrab olinishini ta'minlash hamda maktabgacha ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sherikchiligi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish uchun eng zamonvay platformalaridan biri ekanligi ko'rinib turibdi.

5. Ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida hamkorlikni yo'lga qo'yish davlat va xususiy sektorning o'zaro ustunliklarini uyg'unlashtirish orqali ta'lim xizmatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklik modeli ta'lim sohasida barqarorlik, shaffoflik, innovatsion rivojlanish va resurslardan samarali foydalanishning poydevorini yaratadi, bu esa ta'lim tizimining uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

6. Maktabgacha ta'lim tizimini davlat-xususiy sheriklik (DXSH) modeli orqali kengaytirish strategiyasi O'zbekistonda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv nafaqat amaldagi qamrov darajasini oshirishga, balki uning barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. 2026–2030-yillar uchun ishlab chiqilgan o'sish sur'atlari prognozi ushbu jarayonning istiqbolli tendensiyalarini ochib beradi. Jadvalga muvofiq, 2026-yildan boshlab DXSH asosida qamrab olinayotgan bolalar sonining yillik optimal o'sish sur'ati 28,5% miqdorida baholanmoqda. Prognoz natijalari shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda ushbu sur'at nisbatan barqaror saqlanib, 2026-yilda 28,5%, 2027–2028-yillarda taxminan 27,7–28,0% atrofida bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar maktabgacha ta'lim sohasida ham iqtisodiy, ham tashkiliy salohiyatning nisbatan muvozanatli rivojlanishidan darak beradi.

7. Eng past o'sish ssenariysi – ya'ni quyi chegaralar 17–18% atrofida bo'lib, bu konservativ prognoz bo'yicha ham har yili sezilarli qamrov kengayishiga erishilishini bildiradi. Ayniqsa, 2030-yilga kelib quyi chegara 17,54% deb baholangan bo'lib, hatto eng past ssenariyda ham ta'lim tizimining qamrov darajasi ortib borishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yuqori chegara ssenariylari (2026 yilda 38,9%, 2026–2030-yillarda 38–39% oralig'ida) taqdirida esa sohada jadal sur'atdagi rivojlanish kuzatiladi. Bu esa xususiy sektor ishtirokining kengayishi, moliyaviy rag'batlar, soliq imtiyozlari va yangi bog'chalar ochilishining kutilayotgan sur'atlariga bog'liq.

8. Tadqiqot ishida maktabgacha ta'lim tizimidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini muvaffaqiyatli tarzda bajarishning muhim shartlaridan biri qonunchilik bazasini yaratishdir. Bunda nafaqat shu sohaga oid alohida qonunni qabul qilish, balki uning normalaridan kelib chiqib boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, budjet va soliqqa oid kodekslarga o'zgartishlar kiritish talab etiladi. Shuningdek, ushbu loyihaning xususiy sarmoya ishtirokida amalga oshirilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lishi lozim ekanligi asoslangan.

9. Muallif fikricha davlat-xususiy sheriklik asosida ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklikning tashkil etilishi davlat va xususiy sektorning afzalliklaridan foydalangan holda ta'limda miqdor va sifat o'lchamlari o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi. Bundan tashqari, ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklikning tashkil etilishi o'qituvchilar motivatsiyasini oshiradi. Davlat va xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida raqobat yuzaga keladi. Ota-onalar va talabalarning tanlov imkoniyatini oshiradi va ularning ta'lim jarayonidagi reytinglarga e'tibori oshib boradi, bundan tashqari ta'lim aksiyalari va xizmatlarini xususiy sektorga taklif etish iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.I.04.12 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ БЕРДАХА**  
**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ  
ШАРОФ РАШИДОВА**

**УБАЙДУЛЛАЕВА ВАСИЛА САДУЛЛАЕВНА**

**Совершенствование организационно-экономического механизма  
государственно-частного партнерства в сфере предоставления  
образовательных услуг**

**08.00.05 - Экономика сферы услуг**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Нукус- 2026**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.1.PhD/Iqt4678.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шароф Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))

Научный руководитель:

Саидахмедова Нодира Илхомовна  
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Салаев Санъатбек Камилович  
доктор экономических наук, профессор

Халмуратов Куаниш Полатович  
доктор философии (PhD) по экономическим наукам, доцент

Ведущая организация:  
университет

Гулистанский государственный

Защита диссертации состоится «04» 04 2026 года в 12<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.1.04.12 по присуждению ученой степени при Каракалпакском государственном университете имени Бердаха, Адрес: 230112, г.Нукус, ул. Ч. Абдилова, дом 1. Тел. (99861) 223-60-78; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета имени Бердаха (зарегистрирован под номером 190). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч. Абдилова, дом 1. Тел.: (998 61) 223-60-78. электронная почта: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан «18» 03 2026 года.  
(реестр протокола рассылки № 14 от «18» 03 2026 года.)



  
Ж.К.Сауханов  
Председатель ученого совета по  
присуждению ученых степеней  
д.э.н., профессор

  
Р.Б.Утемуратов  
Ученый секретарь ученого совета  
по присуждению ученых  
степеней, PhD, доцент

  
Б.С.Калмуратов  
Председатель научного семинара  
при Ученом совете по  
присуждению ученых степеней  
д.э.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Внедрение механизмов государственно-частного партнерства (ГЧП) в предоставление образовательных услуг в условиях глобальной экономики имеет огромное значение для диверсификации источников финансирования сектора образования, модернизации инфраструктуры и расширения спектра услуг. При сохранении социальных обязательств государства посредством ГЧП, инновационные методы управления частного сектора, цифровые платформы и возможности персонализации услуг способствуют повышению качества образования. Сегодня, в условиях глобализации и резко возрастающей конкуренции на мировом рынке, образовательные услуги требуют особого внимания как стратегически важный сектор. В частности, тот факт, что «их объем на международном рынке достиг 100 миллиардов долларов США, а доля человеческого капитала в национальном богатстве составляет 70 процентов в развитых странах, 58 процентов в странах со средним уровнем дохода и 41 процент в регионах с низким уровнем дохода»<sup>1</sup>, еще больше усиливает необходимость внедрения эффективных организационно-экономических механизмов на основе государственно-частного партнерства в этой области. В рамках государственно-частного партнерства (ГЧП) распределение рисков между государством и бизнесом, использование контрактов, основанных на результатах, и показателей эффективности обеспечивают стабильность рынка образовательных услуг. Поэтому целесообразно провести углубленное изучение институциональных и методологических аспектов государственно-частного партнерства в предоставлении образовательных услуг и научные исследования путей его совершенствования.

В условиях растущей глобальной конкуренции укрепление партнерских отношений между государством и частным сектором в системе образовательных услуг, развитие их комплексного сотрудничества, совершенствование механизмов регулирования для обеспечения устойчивого роста качества образования и видов услуг, а также разработка мер, направленных на создание благоприятной учебной среды для учащихся, стали одними из важнейших приоритетов.

«В Узбекистане становится объективной необходимостью определить приоритетные направления системной реформы образования и развивать государственно-частное партнерство в предоставлении образовательных услуг. В этой связи Президент Республики Узбекистан: «...подчеркивается необходимость «широкого использования потенциала государственно-частного партнерства в организации образовательных учреждений», и на основе этого подхода признается неотложной задачей формирование

---

<sup>1</sup> <https://сиберленинка.ru/article/н/мировой-рынок-образовательных-услуг-высшей-школы>; <http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=3649>

стабильных и эффективных взаимоотношений между государственным и частным секторами на уровнях дошкольного, общеобразовательного, профессионального и высшего образования, а также углубленное научно-методологическое и практическое изучение специфических организационно-экономических аспектов государственно-частного партнерства, способствующего повышению конкурентоспособности выпускников, особенно в регионах<sup>2</sup>. «Поскольку целью расширения образовательных услуг в нашей республике в связи с ростом населения и достижением определенной эффективности посредством формирования знаний, навыков и квалификаций обучающихся является повышение эффективности организационно-экономических механизмов развития организаций дошкольного образования, Стратегия развития Нового Узбекистана ставит перед нами такие важные задачи, как: «повышение уровня охвата дошкольным образованием с 67% как минимум до 80%. Это свидетельствует о том, что совершенствование организационно-экономического механизма государственно-частного партнерства, основанного на повышении качества образовательных услуг, имеет первостепенное значение для обеспечения выполнения этих задач»<sup>3</sup>.

Данное диссертационное исследование в определенной степени способствует выполнению задач, поставленных в нормативно-правовых документах, таких как: Указ Президента Республики Узбекистан № УП-16 от 30 января 2025 г. «О государственной программе реализации стратегии «Узбекистан – 2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики»», № УП-51 от 19 марта 2025 г. «О дополнительных мерах по повышению эффективности системы управления в сфере дошкольного и школьного образования», № УП-37 от 21 февраля 2024 г. «О государственной программе реализации стратегии «Узбекистан – 2030» в «Год поддержки молодежи», № УП-152 от 30 сентября 2024 г. «О дополнительных мерах по дальнейшему повышению качества и эффективности дошкольного образования», № УП-158 от 11 сентября 2023 г. «О стратегии «Узбекистан – 2030»», УП-60 от 1 января 2023 г. 28, 2022 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Постановления № ПП-5847 от 8 октября 2019 г. «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», № ПП-259 от 26 апреля 2020 г. «О дальнейших мерах по обеспечению конкурентной среды и прозрачности в системе государственных закупок», № ПП-3980 от 20 октября 2018 г. «О первых мерах по созданию правовой и институциональной основы для развития государственно-частного партнерства», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № ПКМ-720 от 30 октября 2024 г. «О мерах по дальнейшему совершенствованию и всесторонней систематизации

<sup>2</sup> Обращение Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева к Олий Мажлису [http://uza.uz/oz/politics/oVerhovnyy\\_Sovet\\_Prezidenta\\_Respubliki\\_Uzbekistan\\_Shavkat\\_Mirziyev](http://uza.uz/oz/politics/oVerhovnyy_Sovet_Prezidenta_Respubliki_Uzbekistan_Shavkat_Mirziyev), 28.12.2018

<sup>3</sup>Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы». <https://lex.uz/docs/5841063>

сферы государственно-частного партнерства» и других постановлениях в данной области.

**Соответствие проводимых исследований приоритетным направлениям развития науки и техники республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в рамках одного из приоритетных направлений развития науки и технологий Республики Узбекистан — стратегической концепции «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического правового общества, формирование инновационной экономики». Работа осуществлена в соответствии с теоретико-методологическими подходами, направленными на модернизацию системы образовательных услуг в условиях современной цифровой трансформации.

**Степень изученности темы.** Проблемы совершенствования организационно-экономических механизмов развития государственно-частного партнерства в сфере предоставления образовательных услуг широко изучались учеными из зарубежных стран и стран СНГ, и в их работах были обоснованы научные, методические и практические принципы. В частности, зарубежные ученые<sup>4</sup> Дж.М.Кейнс, Я.Шампетер, У.Петти, А.Смит, Д.Рикардо, Дж.Кейнс, М.Фридман, П.Друкер, Б.С.Санто, также другие исследователи, изучали научные теоретические основы государственно-частного партнерства.

В том числе ряд ученых из СНГ<sup>5</sup>: К.К.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассель, Р.Г.Мердик, В.С.Баженова, Д.Г.Баюткин, Ю.А.Шевченко, М.А.Лукашенко, Л.В.Захарова и другие изучали проблему. Из местных ученых<sup>6</sup>-Пардаев М.К.,

---

<sup>4</sup>Кейнс Д. М. Общая теория занятости, процветания и денег / Пер. англ. проф. Н. Н. Любимова, под. ред. д.е.н., проф. Л. П. Куракова. - М.: МИЕМП, 2010; Шумпетер Ю. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Ю. Шумпетер: Пер. Английский Предисл. В. С. Автономова. - М.: ЭКСМО, 2007. - 864 с.; Петти В., Смит А., Рикардо Д., Кейнс Д. Д., Фридман М. Классические экономические мысли. В. В. - М.: ЭКСМО-Пресс, 2000; Друкер П. Бизнес и инновации [Текст] / П. Друкер: Пер. Английский - М.: Уильямс, 2007. - 350 с.; Санто получил степень бакалавра наук в области инноваций как средства экономического развития. Санто Б. С. - Москва: Прогресс, 1990. - 295 с.

